

6-mavzu: Adabiy ertaklar

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni ertak bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ezgulikka intilib yashashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, suhbat, interfaol o'yinlar

Dars jihozi: suratlar va rag'bat kartochkalari

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-Mavzuga qiziqtirish va qizitish: **"Tushunchani aniqla" mashqi.**

Quyidagi so'zlarni birlashtiruvchi tushunchani aniqlang.

Ayiq

Daraxtlar makoni

olmaxon

-O'tilgan mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriq so'raladi:

"Yo'lbars va Tulki" ertak mazmuni yodga olinadi.

2.Asosiy qism(dars mazmunini tushuntirish va mustahkamlash):

Amaliy mashg'ulot. So'zni teskarisiga o'qing.

FILLAUM

Muhokama uchun savollar.

1. Qanday so'z o'qidingiz"

2. Bu so'z haqida nima deya olasiz?

Mavzuni tushuntirish. Darslikda berilgan rasm kuzatiladi va savolga javob beriladi.

Rasmda qaysi ertaklar berilgan?
Ularning mualliflari bilan tanishing.



Xans Kristian
Andersen

Aleksandr Sergeyevich
Pushkin

Rasmda qaysi ertaklar berilgan? Ertakning mualliflari o'qiladi.

Nima uchun bu ertaklar adabiy ertaklar hisoblanadi?

Ertaklarning muallifi ma'lum bo'lsa, ular adabiy ertaklar sanaladi. Adabiy ertaklar she'riy shaklda ham yozilishi mumkin.

Matn ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

O'zbekiston xalq shoiri **Anvar Obidjon** Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. Anvar Obidjon "Ona-yer", "Olovjon va uning do'stlari", "Bezgakshamol", "Akanq qarag'ay Gulmat", „Oltin yurakli Avtobola“, "Alamazon va Gulmat hangomasi", "Meshpolvonning janglari", "Oltiariq hangomalari", "Odobli bo'lish osonmi?", "Meshpolvon" singari 25 ta to'plamini chop ettirdi. U aksariyat asarlarini bolalarga bag'ishlagan.



Anvar Obidjonning "O'rmondagi ziyofat" ertagi navbatma-navbat o'qitiladi. Ertak yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. O'rmonda nima ochildi?
2. Ertakda qaysi hayvonlar tilga olingan?
3. Ular nima ish qiladi?
4. Mehmonlar nima buyurdi?

5. O'rmonda ochilgan oshxonani qanday tasavvur qilasiz?

Lug'at bilan ishlash.

taom-ovqat, yemish, yegulik.

chag'ir-ola-bula, kulrang.

chirik-chirigan.

xo'randa-ovqat sotib oluvchi, ovqatlanuvchi.

Darslikdagi topshiriqlar bajariladi.

"Adashgan harflar" mashqi

Jadvaldagi harflarni o'z o'rniga qo'yib, so'zlarni o'qitiladi.

fil	begemot	eshak	olmaxon
to'n g'iz	ot	buzoq	kirpi
mushuk	kuchuk	maymun	tulki

"Tanlab o'qish" mashqi o'tkaziladi.

Jadvaldagi hayvonlar haqidagi ma'lumotlarni ertakdan topib o'qitiladi.

Mashq daftari bilan ishlash. Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

O'rmon oshxonasiga kelgan hayvonlarning nomi chap ustunga, ular buyurgan yeguliklari o'ng ustunga yoziladi.

Kuchuk	➡	Suyak	Olmaxon	➡	Yong'oq
Maymun	➡	Achchiq choy	To'ng'iz	➡	Chirik oshqovoq
Mushuk	➡	Sutga to'g'ralgan non	buzoq	➡	Kunjara, somon
Tulki	➡	Kakao, tovuq	kirpi	➡	suvilon
Qo'zi	➡	Beda	ot	➡	suli

"Bog'la" mashqi

Qahramonlar o'z bajaradigan vazifasi bilan moslashtiriladi.

Quyon-bosh oshpaz, Bo'ri- o't qalovchi, Ho'kiz- qorovul, echki-ofitsiant.

3. Darsni yakunlash va baholash:

- Adabiy ertaklar haqida nimalar bilib oldingiz?
- Sizga nima yangilik bo'ldi?

 **Uyga vazifa:** Ertakni ifodali o'qing. Tasavvuringizdagi o'rmon oshxonasining rasmini chizing.

7-mavzu: Tabiat in'omi

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni "Suv va daraxt" ertagi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: tabiat in'omlari haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: suratlar va tarqatmalar

Darsning blok chizmasi:

1. Kirish qismi (tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.
- Mavzu nomi e'lon qilinadi.
- Tashkiliy savollar beriladi.
- Mavzuga qiziqtirish: **"Buzuq telefon" kommunikatsion o'yini.**

O'tkazilishi:

1. Ishtirokchilar joylashuvi: Guruhdagi odamlar aylana yoki navbatma-navbat turib olishadi.
2. Birinchi xabar: Birinchi ishtirokchi boshqa ishtirokchiga shivirlab (juda past ovozda) bir xabarni aytadi.
3. Xabar ketma-ket shivirlagan holda bir ishtirokchidan boshqasiga o'tadi.